

## SOYANING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

*Yuldasheva Ra'no Abdurashidovna*

*Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti*

*Xurramova Gulsevar Xudoynazar qizi*

*Toshkent davlat agrar universiteti talabalasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dukkakdoshlar oilasiga mansub moyli ekinlar sifatida ekiladigan soya o'simligining qishloq xujaligidagi ahamiyati va tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Анотация:** В данной статье представлена информация о значении и роли сои, которая выращивается как масличная культура, относящаяся к семейству бобовых, в сельском хозяйстве.

**Abstract:** This article provides information on the importance and role of soybean, which is grown as an oilseed crop belonging to the legume family, in agriculture.

### Kirish

Bugungi kunda bir qator donli ekinlar shular jumlasidan yasmiq, no'xat, mosh, loviya, bug'doy marjumak, suli, arpa, juxori, kabi ozuqaviy jihatidan yuqori o'rinlarda sanaladigan o'simliklar qatoriga hozirgi kunda soya (glycine hispida maxim) kabi muhim o'simlik ham qushilganligi hammaga malum Hozirda soya jahon bozorida ekin maydoni yer shari bo'ylab 111300000 gektar maydonni tashkil etadi. Hosildorligiga keladigan bo'lsak 24.8 s/ga ga to'g'ri keladi

Hozirgi kunda bizning qishloq xo'jaligi tarmog'imizda soya o'simligiga talab ortmoqda va uni yetishtrishga katta etibor qaratilmoqda .Masalan soya ekinlari maydonini kengaytirish,,tuproq -iqlim sharoitiga mos keluvchi ,zarakunandalarga qarshi va chidamli navlarni yaratish va uni yetishtirishni yulga qo'yish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad soyaning keng tarmoqda ishlatilishi hisoblanadi .Soyaning qishloq xo'jaligida tutgan o'rni nihoyatda katta hisoblanadi [1] .

Asosan soya oziq -ovqatda, sut, texnika hamda qandolat mahsulotlari va kanserva tayyorlashda keng foydalaniladi. Bundan tashqari parrandalar hamda chorva mollari uchun ham sifatli va to'yimli ozuqa vazifasini bajaradi. Soyaning bunday ko'plab sohalarda qo'llanilishi uning tarkibi bilan bog'liq. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida o'simlik oqsilini ishlab chiqish va taminlash eng katta muommalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu muommoni yechishda dukkakli don ekini hisoblanadigan soya o'simligining ahamiyati nihoyatda yuqori o'rinlarda turadi. Soya o'simligining tarkibida:30-52 % oqsil, 17-27 % moy, 20 % gacha karbon suvlar mavjud bo'lib soya o'simligining oqsili boshqa dukkakli o'simliklarga qaraganda bir muncha farq qiladi

.Ya'ni suvda yaxshi eriydigan ,yengil hazm bo'ladigan tarkibida glitsin aminokislotalari ko'p bo'lib aminokislotalar tarkibi bo'yicha go'sht oqsiliga yaqin buladi.soya o'simligi oqsillarning asosiy 70% qismini globulinlar tashkil qiladi va qo'shimcha funksiyalarga ega hisoblanadi [2].

Aniqlanishicha jahon miqiyosida o'simliklardan olingan moyning 40 % soya o'simligi moyi hissasiga to'g'ri keladi . Soya tarkibidagi uglevodlarga tuxtaladigan bo'lsak ,uglevodning asosiy qismini kraxmalsiz polisaxaridlar tashkil etadi .Ammo uning tarkibida oligosaxaridlar ham mavjud Bundan tashqari soya tibbiyotda ham o'ta foydali , chorvachilikda hosildorlikni oshirishda samarali va qishloq xo'jaligida hamkor ekin sifatida yetishtirish uchun qulay bo'lgan o'simlikdir. Hamda tuproqning strukturasini yaxshilab tugunak bakteriyalar hosil qilish xususiyatiga ega o'simlik [3] .

Soya o'simligi va undan olinadigan mahsulatlar oshqozon va me'da ichak tizimi kasalliklarida foydali hisoblanadi .bundan tashqari soya qandli diabet kasalligini davolashda ham samarali foyda beradi .Hozirgi kunda soya o'simligining erta pishar, o'rta pishar, kech pishar navlari mavjud .

O'simlikning vegetatsiya davri o'sish, rivojlanish, unib chiqish, shonalash, g'ujlanish, gullash, pishish kabilarni o'z ichiga oladi.[4]

#### Vegetatsiya davri jadvali

Nav turlari	Kun	Kun
Erta pishar	90	100
O'rta pisha	110	120
Kech pishar	130	140

Bugungi kunda O'zbekistonda soyaning 24 navi ekib kelinmoqda . O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4- martdagi 121-sonli qaroriga asosan 2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish kursatkichlarida qishloq xo'jalik ekinlari asosiy ekin sifatida yetishtirish uchun ajratilgan jami ekin maydoni 3 148 305 gektar bo'lib shundan soya uchun 39617 gektar yer maydoni ajratilgan.

#### Xulosa

Ushbu mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, dunyo miqiyosida o'z o'rniga ega bo'lgan dukkakdoshlar oilasiga mansub soya o'simligi doni tarkibida aminokislatolarning mavjudligi uning ozuqaviy ahamiyatini belgilab beradi. Bundan

tashqari soya o'simligidan olinadigan mahsulotlardan tibbiyotda ham keng foydalanib kelinmoqda, shuni qushimcha qilib aytmog'imiz lozimki soya o'simligining iqtisodiy jihatdan muhimligi respublikamizda ushbu o'simlikning ser hosil har xil abiotic va biotik omillarga chidamli navlarini yaratishni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov .I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti -to'kin hayot manbai . T : O'zbekiston
- 2.Yormatova D "O'zbekistonda soya yetishtirish" – Toshkent :O'zbekiston , 1983
- 3.Abdukarimov –"Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi"
- 4.Abdukarimov –"Qishloq xo'jaligi ekinlarri seleksiyasi"